

LINGVISTIKA, UNING ZAMONAVIY TURLARI HAMDA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Axadova Sojida Sobirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Keldiyorova Laziza

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy lingvistikaning hozirgi kundagi turlari va yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan. Hozirgi kunda tilshunoslik ilmda barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas. Mazkur maqolamiz ayni mana shu masala tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiyaga qaratilganligi bilan e'tiborlidir.

Kalit so'zlar: lingvistika, termin, sotsiolingvistika, statik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, lingvokulturologiya, sistema, til, etnolingvistika, sotsiolingvistika, etnopsixolingvistika.

Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi lingua bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular ozaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini - tilni sistema sifatida - bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtayi nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Dinamik lingvistika.
2. Statik lingvistika.
3. Sinxron lingvistika.
4. Diaxron lingvistika.
5. Intralingvistika.
6. Ekstralingvistika.

7. Paralingvistika.
8. Psixolingvistika.
9. Sotsiolingvistika.
10. Matematik lingvistika.
11. Kompyuter lingvistikasi.
12. Kognitiv lingvistika.
13. Pragmalingvistika.
14. Lingvokulturalogiya.

1. Dinamik lingvistika. Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, kommunikativ jarayonda turlicha vazifalarni faol bajarishda, "taraqqiyotda", o'zgarishda tadqiq qiladi.

2. Statik lingvistika. Statik lingvistika til faoliyatidagi to'liq sinxronlashgan muayyan bir davrni (bo'lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o'zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi - zamonaviy davri bilan bog'liq ma'lum bir "qotgan" qismini - holatini tekshiradi.

3. Sinxron lingvistika. Sinxron lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning ma'lum bir davrdagi "qotgan", "turg'un" holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

4. Diaxron lingvistika. Diaxron lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o'rganadi.

5. Intralingvistika (ichki lingvistika). Ichki lingvistika til birlik-larining sistem aloqasini, munosabatini ekstralingvistik faktorlarga bog'liq bo'lmagan holda o'rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo'lib fonologiya, leksikologiya va grammatika hisoblanadi.

6. Ekstralingvistika (tashqi lingvistika). Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shunga ko'ra, ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshiradi.

7. Paralingvistika. Paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtda yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini(imo-ishora, mimika), nutqning balandligi, ekspressiv-emotsional bo'yoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir.

8. Psixolingvistika. Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtayi nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo'naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o'rganadi. U nutqdagi - fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e'tibor beradi.

Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikir almashtirish-ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o'xshashlik (analogiya), farqlash (differensiatsiya), ta'sirchanlik, so'zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e'tibor beradi.

9. Sotsilingvistika. Sotsiologiya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog'liqligidan hosil bo'lib, jamiyat va til (til va jamiyat) munosabati masalasi bilan shug'ullanadi. U tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan sotsiologikaning eng muhim, asosiy muammosi tilni - til tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o'rni va ahamiyatini belgilashdir.

Sotsiologiya, asosan, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot hodisalari, faktlari o'rtasidagi bog'liqlikni, ushbu bog'liqlikning sabablarini o'rganadi. Anig'i, mazkur soha jamiyatning yashash va rivojlanishida tildagi ijtimoiy hayot, ya'ni, tashqi-ekstralingvistik faktorlarning (omillarning) ta'siri natijasida hosil bo'lgan hodisalarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni tahlil qilib boradi. Demak, sotsiologiya ijtimoiy faktorlarning tilga qanday ta'sir qilishi, til sistemasida (strukturasida) qanday namoyon bo'lishi, qanday shaklda aks etishi kabilarni tadqiq qiladi. Eslatamiz, sotsiologiya statistik ma'lumotlar, aholi ro'yxati va anketa ma'lumotlari metodikasi bilan o'z faoliyatini kengaytirib boradi.

10. Matematik lingvistika. Matematik lingvistika tilni o'rganish va tasvirlash jarayonida matematik usullarning (masalan, statistik usul, informatsiya nazariyasi kabilarning) qo'llanish imkoniyatlarini tekshiradi.

11. Kompyuter lingvistikasi. Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, uning asosiy maqsadi tilshunoslikka oid muammolarni kompyuter vositasida, bevosita uning "rahbarligida" hal qilishdir. Aniqrog'i, kompyuter lingvistikasi tillarni o'qitish (o'rganish), muayyan fanga oid bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash, bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish, statistik tadqiqotlar olib borish kabi qator jarayonlarda faol xizmat qilmoqda.

12. Kognitiv lingvistika. Kognitiv lingvistika tilshunoslikdagi eng yangi yo'nalishlardan biridir. Ushbu tilshunoslik kognitologiya (inson bilimini o'rganuvchi fan) va lingvistika fanlarining o'zaro zaruriy bog'lanishidan, hamkorlikda ish olib borish maqsadida yuzaga kelgan.

13. Pragmalingvistika. Pragmatik lingvistika struktur tilshunoslik yutuqlari, natijalari asosida shakllangan yangi bosqichdagi fahmiy (empirik) tadqiqotlar, izlanishlar natijasidir. U lisoniy birlikning qo'llanilish vaziyatini, nutqiy faoliyatini sistema sifatida oladi. Shunga ko'ra muayyan birlikni nutqiy faollikda, voqelanishda, nutqda namoyon bo'lishda turli nolisoniy omillar va turli sathlar bilan hamkorlikda, ular bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganadi, tekshiradi.

14. Lingvokulturalogiya. Lingvokulturalogiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari asosida shakllandi. U madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganadi.

Xullas, lingvistika fani umumiylik sifatida, qayd etilganidek, turlicha xususiyliklari, sohalari orqali til sistemasini butun mohiyati, murakkabligi bilan, kommunikativ cheksiz imkoniyatlari bilan tadqiq qiladi. U ayni jarayonda qator fanlar bilan o'zaro aloqada, hamkorlikda ish olib boradi, til va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va nutq kabi o'ta dolzarb va o'ta murakkab masalalarning yoritilishida faol ishtirok etadi.

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo'q mezonlaridan biri til - aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta'lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini-ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo'llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o'ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni «o'zicha» aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g'urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Til madaniy ahamiyatga ega axborotlarni saqlash va to'plash vositasi hisoblanadi. Bir qancha birliklarda bu ma'lumotlar hozirgi kun til egasi uchun implisit xarakterga ega bo'ladi, asriy o'zgarishlarga uchrab, faqat bilvosita tekshirganda namoyon bo'ladigan tarzda yashiringan bo'ladi. Biroq u mavjud va ong ostida "ishlaydi". (Masalan, quyosh so'zi - oy, osmon, ko'z, xudo, bosh so'zlari bilan bir semantik chiziqda yotadi). Til birliklarida joylashgan madaniy axborotlarni ajratib olish uchun lingvokulturolog bir qancha o'ziga xos usullarni qo'llashi kerak bo'ladi. V.N.Teliya lingvokulturologiyaning obyekti nafaqat o'ta milliy, shuningdek, umuminsoniy (Masalan, Qur'on, Injil kabi turfa madaniyatlarda ham uchraydigan) madaniy axborotlardir. Bu sohani aniq bir xalqqa yoki qarindosh xalqlarga tegishli bo'lgan madaniy axborotlar qiziqtiradi.

Lingvoo'lkashunoslik va lingvokulturologiya shunisi bilan farqliki, lingvoo'lkashunoslik asosan tilda o'z aksini topgan milliy realiyalarni o'rganadi. Mazkur til birliklari muqobilsiz bo'lib (E.M.Vereuagin va V.G.Kostomarovning fikricha), mazkur madaniyatning o'ziga xos jihatlaridir.

Etnopsixolingvistika lingvokulturologiya sohasi bilan chambarchas bog liq sohalardir. Etnopsixolingvistika muayyan an'anaga oid bo'lgan xulq-atvorning nutq faoliyatida qanday namoyon bo'lishini o'rganadi, turli til egalarining verbal va noverbal fe'l-atvoridagi farqlarni tahlilga tortadi, nutq odobi va "dunyoning rangli manzarasi"ni, madaniyatlararo aloqalarda matn lakunalarini tadqiq etadi, ikki tillilik va ko'p tillilikni turli xalqlar nutq odobining o'ziga xos tomoni sifatida talqin qiladi. Etnopsixolingvistikaning asosiy tadqiqot metodi assotsiativ tajriba bo'lsa, lingvokulturologiya tilshunoslikdagi barcha metodlarni qo'llay olishi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bagapova, G., & Kobilova, N. (2019). Nofilologik oliy o'quv yurtlarida xorijiy ta'limni takomillashtirishda didaktik materiallardan foydalanish masalalari. Fan va jamiyat, 4, 185-189.
2. Shohimardonova, M. O. (2020). the role of polysemantic verbs in the English and Uzbek languages. Amaliy lingvistika va adabiyotshunoslikmuammolari, 1(2), 208-211.
3. Toliboboeva, S. J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. Science and Education, 1 (Special Issue 2).
4. Umirova, Z. (2020). IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES.
5. International Scientific Conference of Students and Young Scientists "FARABI ALEMI".
6. Usmonova, G. (2020). The etymological peculiarities of the modern English vocabulary. Экономика и социум, 70(3), 93-95.
7. Yusupova, M. A. (2019). COMMUNICATIVE COMPETENCE AS A CORE COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS. Современные исследования в области преподавания иностранных языков в неязыковом вузе, (8), 39-44.
8. Juldasheva, N. N. (2020). Хорижий тилларни ўқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг ўрни. Молодой ученый, (12), 332-333.
9. Abduramanova, D. V. (2020). Innovative techniques of teaching vocabulary in the second language classroom. Science and Education, 1 (Special Issue 2), 34-38.
10. Mishra, D., Bakhronova, D., Djalilova, U. (2023). Activity-Based Learning: An Analysis to Teach Learners Using Online Methodologies. In: Nguyen, T.D.L., Lu, J. (eds) Machine Learning and Mechanics Based Soft Computing Applications. Studies in Computational Intelligence, vol 1068. Springer, Singapore.
https://doi.org/10.1007/978-981-19-6450-3_17
11. Dadaboyev K., Bakhronova D. The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. Religación //Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades. – 2021. – T. 6. – №. 30. – C. e210871.
12. Baxronova D.K. OLAM MANZARASI: TIL, TAFAKKUR VA MADANIYAT. – Monografiya, GlobeEdit, 2023. – 212 b.
13. Сабирова Нилуфар Абдуллаевна. (2022) Лингвистические и универсальные типологии на уроках Е/LE. № 2 (92)_психология и образование.
<https://cyberleninka.ru/article/n/lingvisticheskie-i-universalnye-tipologii-na-urokah-e-le>